



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA**  
**BANDLIK BOSH BOSHQARMASI**

Namangan shahar, Nodira ko'chasi, 3-uy Telefon: (69) 227-97-90 Fax: (69)  
227-97-89,

E-mail: [nammeh@inbox.uz](mailto:nammeh@inbox.uz), web: [mehnat.uz](http://mehnat.uz)

№ 19/19-01/13-309

" dd " oyning 2024 yil

O'zbekiston Respublikasi  
Kambag'allikni qisqartirish  
va bandlik vaziriga

Namangan viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi Sizing O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 13-aprelda Qashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi Dexqonobod va Ko'kdala tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish yakuni xulosasini muxokama yig'ilishi o'tkazildi.

Bosh boshqarma xodimlari hamda tuman shahar bo'limi boshliqlari ishtirokida muxokama qilindi, tuman shahar bo'limlari va kasb-xunarga o'qitish markazlari rahbarlariga ijrosini taminlash bo'yicha topshiriqlar berilgani ma'lum qilamiz.

**Bosh boshqarma bosh boshlig'i**

**Z. Ikramov**



Namangan viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining apparati hamda tuman shahar bo'limi rahbarlari ishtirokida Zoom ko'rinishida selektor yig'ilishi

## BAYON № 9

2024 yil 18 aprel

Namangan shahri

Raislik qiluvchi:

Z. Ikramov – Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i

Ishtirok etganlar:

Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, boshqarma xodimlari va tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari boshliqlari (ro'yxat bo'yicha)

### KUN TARTIBI:

**Qashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi Dexqonobod va Ko'kdala tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish yakuni xulosasini muxokama yig'ilishi to'g'risida.**

(Z. Ikramov, A. Aloxojaev, Sh. Abdudullaev, A. Qosimov, Z. Ikramov)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Namangan viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig'i Z. Ikramov yig'ilishni ochib, Namangan viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi va tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlarida olib borilayotgan ishlar, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 13 apreldagi Kashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi Dexqonobod va Ko'kdala tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan o'tkazilgan o'rganish yakuni xulosasini o'qib eshitirdi.

Jumladan Bosh boshqarmaning Dehqonobod va Ko'kdala tuman bandlik bo'limlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati o'rganilganda 2023-2024 yil 1 mart oylarida ish xaqiga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha 567860855 so'mlik xatoliklar aniqlangan. Bosh boshqarma boshlig'ining 2023-yil 31-avgustdagi 107-ICH- sonli xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi buyrugi chiqarilgan bo'lib, ushbu buyruq ilovalari o'rganilganda 36 859 800 so'mlik farqlar aniqlanib, xodimlarga 18 899 800 so'm ortiqcha to'langan hamda to'lanishi lozim bo'lgan 17 960 000 so'mni to'lab berilmagan.

Bosh boshqarmaning shtatlar jadvalida rejalashtirilgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish maxsus fondi mablag'larini "Byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 20-sentyabrda 177-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) talablariga muvofiq bosh boshqarma boshlig'i R.G'afurovga 2023-yil davomida 1 616 260 so'm ortiqcha to'lov amalga oshirilgan.

Yillik mehnat ta'tili vaqtida saqlanib qolinadigan o'rtacha ish haqi miqdorini aniqlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 17-mart kuni 2985-son bilan ro'yxatdan o'tgan) asosan bosh boshqarma xodimlarining mehnat ta'tili uchun 306 768 so'm ortiqcha to'langan va to'lanishi lozim bo'lgan 16 148 837 so'm to'lab berilmagan.

Xodimlar lavozimidan ozod etilgandagi hisob-kitob pullari to'lanishida 35 616 so'm ortiqcha to'lov amalga oshirilgan hamda to'lanishi lozim bo'lgan 232 842 so'm mablag' to'lab berilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi "Davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida xizmat avtotransport vositalaridan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 258-son qarori talablari asosida o'rganilganda, bosh boshqarma balansidagi avtotransport vositasi 2019-yilda ishlab chiqarilgan davlat raqami 70 052 DAV bo'lgan Lasetti rusumli avtomashina boshqarma boshlig'iga, 2018-yilda ishlab chiqarilgan davlat raqami 70 906 KVA bo'lgan Lasetti rusumli avtomashina boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari M. Amirovga biriktirilgan.

Mazkur avtotransport vositalarini yoqilg'isi uchun smetada ajaratilgan 44 089 717 so'm mablag' qaror talablariga zid ravishda boshqarma balansida bo'lmagan, Shahrisabz kasb-hunarga o'qitish markazi balansida bo'lgan Kaptiva rusumli davlat raqami 70 284 EBA avtomashina uchun sarflangan.

Dehqonobod tuman Bandlik bo'limi buxgalteriya hisobotlarini yuritish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrda "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 105-son buyrug'i, Buxgalteriya hisoboti milliy



standartlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilmagan.

Birlamchi hujjatlar to'liq shakllantirilmagan, to'lov qaydnomalari oyma-oy o'z vaqtida rasmiylashtirilmagan, xodimlar bilan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya qilinmagan, tasdiqlangan shtat jadvali bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmagan, kassa qoidalari noto'g'ri yuritilib, byudjet intizomi buzilgan.

Bandlik bo'limining shtatlar jadvali 2023-yil 1-mayda tasdiqlangan va 2023-yil 15-sentyabrda o'zgartirish kiritilgan, shunga ko'ra rahbar kotibasi 1 stavkadan 0,75 stavkaga qisqartirilgan bo'lsada, lekin 0,25 stavkaga kamaytirmagan holda 2 954 532 so'm ortiqcha to'lov to'lanib kelingan.

Tasdiqlangan shtat jadvaliga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-yanvardagi PQ-2722-sonli qaroriga asosan xodimlarning har oylik lavozim maoshiga qo'shib to'lanadigan 20 foizlik ustama hamda lari shtatlar jadvaliga kiritilib, moliya bo'limi tomonidan tasdiqlangan bo'lsada, to'lanishi lozim bo'lgan ushbu mablag bo'lim bosh hisobchisi tomonidan xodimlarga asossiz ravishda 44 480 317 so'm to'lab berilmagan. Shuningdek, xodimlarning har oylik lavozim maoshiga qo'shib to'lanadigan 40 foizlik rag'batlantirish koeffitsenti ustama mablaglarini to'lanishida 6 nafar xodimga 16 981 068 so'm ortiqcha to'lab berilishi lozim bo'lgan 26 385 041 so'm to'lab berilmagan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 25-apreldagi 62-sonli "Xodimlarining ko'p yillik xizmatlari uchun har oylik ustama olish huquqini beruvchi ish stajini hisoblash tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga asosan xodimlarning ish stajlariga har oylik ish haqlariga qo'shib to'lanadigan ustamalami to'lanishida 2 297 251 so'm ortiqcha to'lov amalga oshirilgan, to'lab berilishi lozim bo'lgan 174 883 903 so'm to'lab berilmagan.

Xodimlarning ishlagan kunlarini qayd etish tabellari bo'yicha ish haqlarini to'lashda 6 nafar xodimga 1 528 998 so'm ortiqcha to'lov amalga oshirilgan.

Bosh boshqarmaning 2023 yil 25 dekabrda 130-l-sonli buyruq bilan Bandlik bo'limiga xodimlarni mukofotlash uchun 13 492 752 so'm mablag bosh boshqarma tomonidan (*so'liq ajratmalari bilan*) o'tkazib berilgan bo'lsada, lekin bo'lim bosh hisobchisi tomonidan buyruqqa zid ravishda xodimlarga teng taqsimlanmasdan 7 nafar xodimga 1 522 929 so'm ortiqcha to'lov to'langan, 16 nafar xodimga to'lab berilishi lozim bo'lgan 503 744 so'm to'lab berilmagan.

Tuman bo'limi bosh hisobchisi shtatlar jadvaliga tuman moliya bo'limi tomonidan mablag' ajratib berilganligiga qaramasdan, qasddan xodimlarga ish haqiga tenglashtirilgan to'lovlar to'lab bermaganligi, lekin tuman bandlik bo'limi o'rinbosari Q.Qurbonov (*so'biq bo'lim boshlig'i*), bosh mutaxassis D.Xaydarov (*so'biq o'rinbosar*), bosh hisobchi N.Qushmiraev, xo'jalik ishlari mudiri- O.Odinaev (*so'biq hisobchi*, tashkiliy nazorat va kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi S.Salomov, davlat mehnat huquq inspektori B.Abdiev hamda boshqa xodimlar O.Qayumov, K.Xushvaqto'v, M.Anorov va U.Ashurovalarga 12 ta holatda hech qanday asoslarsiz buyruqlar mavjud bo'lmasada, jami 23 126 556 so'm to'langan.

Yillik mehnat ta'tili uchun 7 632 569 so'mlik ortiqcha to'lov amalga oshirilgan hamda to'lab berilishi lozim bo'lgan 9 543 829 so'm to'lab berilmagan.

Xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilishdagi hisob-kitob pullari (*foydalanilmagan ta'tillar uchun kompensatsiya*) to'lanishida 4 644 723so'ni ortiqcha to'lov to'langan bo'lib, to'lab berilishi lozim bo'lgan 3427 035 so'ni to'lab berilmagan.

Bandlik bo'limining xo'jalik ishlari mudiri O.Odinaev moddiy javobgar shaxs sifatida tayinlangan bo'lib, Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrda (Adliya vazirligidan 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 105-son buyrug'i bilan tasdiqlangan yo'riqnomaning 32-bandiga asosan ular o'rtasida moddiy javobgarligi haqida shartnoma tuzilgan. "UzASBO" elcktron dasturiy majmuasiga kiritilgan asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklar 16 turda bo'lib, umumiy qiymati 458 917 508 so'mni tashkil qiladi.

Ko'kdala tuman Bandlik bo'limi bosh hisobchisi tomonidan xodimlarning har oylik lavozim maoshiga qo'shib to'lanadigan 40 foizlik rag'batlantirish koeffitsenti ustama mablag'lari to'lanishida 22 nafar xodimga to'lab berilishi lozim bo'lgan 28 010 813 so'm to'lab berilmagan.

Xodimlarining ish stajlaridan kelib chiqib har oylik ish haqlariga qo'shib to'lanadigan ustamalami to'lanishida 1 096 890 so'm ortiqcha to'lov to'langan, to'lab berilishi lozim bo'lgan 127 798 087 so'm mablag' to'lab berilmagan.

Xodimlarning ishlagan kunlarini qayd etish tabellari bo'yicha ish haqi to'lashda 4 nafar xodimga nisbatan 5 857 942 so'm ortiqcha to'lov to'langan.

Xodimlarning mehnat tatili uchun 3 421 603 so'mlik ortiqcha to'lov to'langan hamda to'lab berilishi lozim bo'lgan 7 547 408 so'm to'lab berilmagan.

#### *Aholini tadbirkorlikko jalb qilish jamg'armasi tahlili*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-maydagi 252-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risida" gi qarori ijrosi yuzasidan ajratilgan subsidiya mablag'larini qonuniyligi o'rganilganda 4 holatda jami 13 971 000 so'mlik mablag'lar maqsadsiz sarflangan.

Jumladan: Dehqonobod tumani "Dehqonobod kashdalari-1" ishlab chiqarish kooperativida Aerodrom MFYda yashovchi fuqarolar Sh.Chorieva, N.Hayitova, Dehqonobod MFYda yashovchi fuqaro M.Norqulovalar xamda "Fayziniso Amirxon" oilaviy korxonasida Beshbuloq MFYda yashovchi fuqaro F.Muminova kasanachi sifatida ishlab kelayotgan bo'lsada, hokim yordamchilari tomonidan qaror talablariga zid ravishda tavsiyanomalar berish oqibatida 4 dona asbob-uskunalar (*tikuv mashinalari*) noto'g'ri berilgan.



### *Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tahlili*

Dehqonobod tumani bo'limi tomonidan Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) mablag'lari hisobidan sarflangan mablag'lari hisobi o'rganilganda, O'zbekiston Respublikasi Aholi bandligi to'g'risidagi Qonunning 44-moddasi talablariga rioya qilmagan holda bandlik bo'limiga ish so'rab murojaat qilgan fuqarolarga, bo'sh ish o'rinlari mavjud bo'lsada ish taklif etilmasdan, murojaat qilgan kunning o'zida ishsiz deb e'tirof etilgan hamda ishsizlik nafaqalari tayinlangan.

Jumladan, 2023-yil davomida 94-nafar fuqarolarni ishsiz deb e'tirof etishda uslubiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilib, bo'sh ish o'rinlari to'g'risida maslahat berganligi yoki maqbul keluvchi ishlar taklif etilganligi bo'yicha "Bandlik xizmati" axborot tizimida aks ettirilmagan.

2023-yil davomida ishsizlik nafaqasi tarqatish qaydnomalari (vedomost) o'rganilganda 86 785 000 so'mlik ishsizlik nafaqasini tarqatish qaydnomalari (vedomost) yo'qligi ma'lum bo'ldi.

"Bandlik xizmati" axborot tizimida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilgan xizmatlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan dasturida 20 nafar fuqarolar ishsiz deb e'tirof etilmaganligi va buyruqlar rasmiylashtirilmagan, Jamg'arma mablag'lari hisobidan ishsizlik nafaqasi uchun 18 765 000 so'm inaqadsiz to'lab berilgan.

"Bandlik xizmati" axborot tizimida mavjud bo'lmagan 5 nafar fuqarolarga jamg'arma mablag'lari hisobidan 3 495 000 so'm ishsizlik nafaqalari maqsadsiz to'langan.

Bundan tashqari, har xil raqamdagi qaydnomalar (vedomost) orqali 17 nafar fuqarolarga bir oy uchun ikki marotabadan jamg'arma mablag'lari hisobidan 13 520 000 so'm ishsizlik nafaqalari ortiqcha to'langan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 7-yanvarda 588-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan "Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaning 6-bandi talabiga rioya qilmagan holda, 4 nafar fuqarolarga muddatidan oldin nafaqa tayinlanib jamg'arma mablag'lari hisobidan jami 113 389 510 so'm noto'g'ri to'lab berilgan.

Jumladan, fuqarolar X.Ulashev va R.Qurbanovlarga "Bandlik xizmati" axborot tizimida ishsiz deb e'tirof etilmasdan muddatdan oldin nafaqa tayinlanib jami 47 921 464 so'm noto'g'ri to'langan.

Shuningdek, Natijada jami 65 468 044 so'm miqdorda muddatdan oldin nafaqa pullari noto'g'ri to'langan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 05-apreldagi 183-sonli "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorning 3-ilova, 4-bob, 37-bandi talablariga rioya qilmagan holda 8 nafar fuqarolarni stipendiyali o'qishga yuborganligi natijasida 15 119 525 so'm maqsadsiz to'lab yuborilgan.

*Asos: Ish qidirayotgan shaxslar kasb-hunarga o'qitish uchun yuborganda, ushbu davrda ularga stipendiya to'lanmaydi hamda ushbu davr umumiy mehnat stajiga qo'shilmaydi.*

O'zbekiston Respublikasi Aholi bandligi to'g'risidagi Qonunning 62-moddasi talabiga rioya qilmagan holda korxonalar va tashkilotlarda ish bilan band bo'lgan 4 nafar fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish markazlariga yo'llanma asosida o'qishga yuborgan. Natijada o'qitish xarajatlarini qoplab berish uchun 861 000 so'm noto'g'ri to'lab berilgan.

*Asos: Ish qidirayotgan shaxslarni hamda ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish quyidagi hollarda mahalliy mehnat organining yo'llanmasiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin:*

Ko'kdala tuman bo'limi tomonidan Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) dan sarflangan mablag'lar hisobi o'rganilganda, O'zbekiston Respublikasi Aholi bandligi to'g'risidagi Qonunning 51 -moddasiga asosan ishsizlik nafaqasi o'n ikki oylik davr ichida ko'pi bilan yigirma olti kalendar hafta davomida to'lanishi nazarda tutilgan bo'lsada, yettinchi oy uchun 3 nafar fuqaroga 2 115 000 so'm ishsizlik nafaqasi noto'g'ri to'lab berilgan.

Aholi bandligi to'g'risidagi Qonunning 45-moddasi talablari buzilgan holda band bo'lgan 1 nafar fuqaroga 690 000 so'm ishsizlik nafaqasi noto'g'ri to'lab berilgan.

### *Jamoat ishlari jamg'armasi faoliyati tahlili*

Dehqonobod tumani bo'limi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-



oktyabrdagi "Jamoat ishlari jamgarmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 799-sonli qarorning 11-bandi talabiga zid ravishda, 10 ta holatda buyurtmachilar bilan shartnomalar amaldagi tartibga rioya qilinmagan holda o'z vaqtdan kechikib tuzilgan va ushbu korxonaga jamoat ishiga jalb etilgan fuqarolar uchun to'lab berilgan, 30 ta holatda jamoat ishlarini tashkil qilish bo'yicha tashkilotlar tomonidan buyurtmalar o'z vaqtida berilmagan.

Ko'kdala tumani bo'limi tomonidan Jamoat ishlari jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) sarflangan mablag'lari o'rganilganda, boshqa tashkilot va korxonalarda ish bilan band bo'lgan 5 nafar fuqarolarni jamoat ishlariga jalb qilib 6 033 882 so'm noto'g'ri to'lab berilgan.

*"Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llah-quvatlash"  
jamg'armasi faoliyati tahlili*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-iyuldagi 307-son qarori talablariga zid ravishda, Dehqonobod va Ko'kdala tuman Bandlik bo'limlari tomonidan 453 420 000 so'mni subsidiya mablag'lari moliyalashtirilgan.

Jumladan, qarorning 2-ilova, 1-bob, 2-bandiga asosan kasanachilikka a'zo bo'lgan fuqarolarni dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o'rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratilishi belgilangan.

Dehqonobod tumani "Og'abek Odina nevarasi" ishlab chiqarish kooperativi 10 nafar ishsiz fuqarolarni ishga qabul qilib, uch oy davomida kasanachilik faoliyati bilan shug'ullanib kelgan davri uchun ish haqlari hisoblab, ushbu hisoblangan mablag'ni qoplab berish uchun subsidiya mablag'lari olish maqsadida tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga hujjatlar taqdim qilingan.

Ammo "Og'abek Odina nevarasi" IChKning kasanachilikni tashkil qilish bo'yicha hujjatlari, tuman bo'limi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-iyuldagi 307-sonli qarorning 2-ilova, 1-bob, 2-bandiga asosan kasanachilikka a'zo bo'lgan fuqarolarni dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o'rtacha daromadi miqdorida bir martalik subsidiya ajratilmasdan, aksincha, mazkur qarorning 3-ilova 1-bob, 2-bandi talablariga zid ravishda ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar" yoki "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan fuqarolarga asbob-uskunalar va xom ashyo xarid qilish bo'yicha subsidiya mablag'lari ajratgan.

Dehqonobod tuman Bandlik bo'limi tomonidan "Og'abek Odina nevarasi" ishlab chiqarish kooperativiga 10 nafar kasanachilikka a'zo bo'lgan fuqarolar uchun ajratilgan 66 000 000 so'm mablag'ni hech qanday hujjatlarsiz oldindan ya'ni 2022- yil 25-oktyabr kuni moliyalashtirib yuborgan.

Yuqoridagi holatlardagi kabi "Dehqonobod Chevarlari" IChK uchun moliyalashtirilgan 85 800 000 so'ni, "Dehqonobod Kashdalari-1" IChK uchun moliyalashtirilgan 85 800 000 so'mni, "Fayziniso Amirxon" oilaviy korxonasi uchun moliyalashtirilgan 37 620 000 so'm mablag'lar, shuningdek, Ko'kdala tumanidagi "Beglamish Nafosati" IChK uchun moliyalashtirilgan 99 000 000 so'm mablag' qarorning 2-ilova, 1-bob, 2-bandi talabiga asosan subsidiya ajratilmasdan, aksincha qarorning 3-ilova 1-bob, 2-bandi talablariga zid ravishda asbob-uskunalar va xom ashyo xarid qilish bo'yicha subsidiya mablag'i ajratilib, o'tkazib berilgan.

O'rganish jarayonida "Maftuna chevar 9797" X/Kga 79 200 000 so'mlik asbob uskuna va xom ashyolar xarid qilish uchun subsidiya ajratilgan, lekin korxonada 65 000 000 so'mlik asbob uskuna va xom ashyolar xarid kilib, qolgan 14 200 000 so'm mablag'ga Maftuna chevar 9797" X/K rahbari tomonidan asbob- uskuna va xom ashyo xarid qilinmagan.

"Dehqonobod Kashdalari-1" IChKni faoliyatini joyiga chiqib o'rganilganda, IChK rahbari tomonidan 5 186 000 so'mlik subsidiya mablag'lariga asbob uskuna va xom ashyo xarid qilinmaganni o'qib eshitirib xuddi shu xolatlar tuman (shahar) bo'limlarida ham bo'lishi mumkinligi barcha masullar tomonidan bir qator o'rganishlar o'tkazib kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha topshiriklar berildi.

Shuningdek, Bosh boshqarma boshlig'i Z.Ikramov yig'ilish yakunida Namangan viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik Bosh boshqarmasi va quyi tizimlari rahbar xodimlari tomonidan ish faoliyati davomida har bir xodim qonunchilikka, xizmat va ijro intizomiga rioya qilishlari, fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lishlari shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida tushuntirish hamda targ'ibot ishlariga e'tibor qaratlari zarurligi to'g'risida gapirib bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalarda qo'yilgan vazifalarni hamda salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida yig'ilish.

**QAROR QILADI:**

1. Qashqadaryo viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi Dehqonobod va Ko'kdala tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan

o'tkazilgan o'rganish yakuni xulosasini muxokama yig'ilishda qo'yilgan talablar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bosh boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari (A. Aloxodjev), "Komplaens nazorat" sho'ba mutaxassisi (A. Qosimov), bosh boshqarmasi tizimidagi tuman (shahar)lari hamda kasb-xunarga o'qitish markazi direktorlariga va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari - xodimlar faoliyati ustidan idoraviy nazoratni yanada kuchaytirsin.

3. "Tashkiliy va ijro intizomi nazorati" bo'limi (M. Egamberdiev), "Komplaens nazorat" sho'ba mutaxassisi (A. Qosimov), bosh boshqarma tizimidagi tuman (shahar)lari hamda kasb-xunarga o'qitish markazida jinoyatlarni oldini olish hamda ularga imkon beruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar har chorakda tanqidiy muhokama qilish uchun bosh boshqarmaning kengaytirilgan yig'ilishlari kun tartibiga kiritib borilishini ta'minlasin.

4. "Komplaens nazorat" sho'ba mutaxassisi (A. Qosimov) byudjet qonunchiligiga rioya etilishi, davlat xaridlari, tender (tanlash) savdolarini o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan idoraviy nazorat, profilaktika va monitoring ishlarini kuchaytirsin.

5. Bir oy muddatda Kadrlar bo'limi (T. Tuyaxo'jaev)ga boshqarma tizimidagi tuman (shahar)bo'limlari hamda kasb-xunarga o'qitish markazlari bilan birgalikda tizim xodimlari uchun kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha malakasini oshirishni tashkil etish choralari ko'rsin.

- boshqarma tizimidagi tuman (shahar) bo'limlari hamda kasb-xunarga o'qitish direktorlariga:

- belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan shaxsiy javobgar ekanligi belgilansin;

- o'z nazorati ostidagi xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini (ob'ektivka) yangilash qayta o'rganib chiqish;

- bir lavozimda 5 yildan ortiq faoliyat yuritgan xodimlarni teng lavozimga rotatsiya qilish choralari ko'rish;

- har bir xodimning sudlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarini IIBga so'rov yuborish orqali aniqlasin;

- korrupsiya bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilganlik holatlari aniqlanganda moliyaviy va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarda ishlashga yo'l qo'ymaslikga e'tibor qaratilsin.

6. Boshqarma bosh xisobchisi (U. Mamajanov), "Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va samarali foydanashni nazorat qilish sho'basini" mutaxassisi (N. Kamalov), tuman (shahar) bo'limlari hamda kasb-xunarga o'qitish markazi direktorlariga ajratilayotgan byudjet hamda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mag'bag'larini maqsadli foydalanishini doimiy nazoratga olish vazifasi belgilansin.

7. Bayonnoma topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat Bosh boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari (A. Aloxodjev)ga mutaxassisi zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi:



A. Qosimov